UO‘K: 1(575.1)

YASSAVIY MEROSI TURKIY XALQLAR MA’NAVIY HAMJIHATLIGINI TA’MINLOVCHI OMIL SIFATIDA

I.S. Saifnazarov

Maqolada O‘zbekistonning fan, ta’lim, adabiyot, san’at, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda turkiy dunyo birligini mustahkamlash va rivojlantirishdagi ishtiroki yoritilgan. O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi tashkiloti va uning tuzilmalari – Turkiy tilli davlatlar Parlament assambleyasi, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti, Xalqaro turkiy akademiya, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi faoliyatidagi ishtiroki haqida fikr yuritilgan. Ahmad Yassaviy merosining turkiy xalqlar ma’naviy hamjihatligini ta’minlovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *TTDHK, TurkPA, TURKSOY, Turkiy davlatlar tashkiloti, Yassaviy, “Hikmat”, Shayxul mashoyix, turkiy til, turkiy xalqlar*.

В статье рассказывается об участии Узбекистана в укреплении и развитии единства тюркского мира в области науки, образования, литературы, искусства, социальной и экономической сферах. Обсуждено участие Узбекистана в деятельности Совета сотрудничества тюркоязычных стран и его структур – Парламентской ассамблеи тюркоязычных стран, Международной тюркской культурной организации, Международной тюркской академии, Фонда тюркской культуры и наследия. Рассмотрено значение наследия Ахмада Яссави как важного фактора, обеспечивающего духовное единство тюркских народов.

Ключевые слова: *ССТС, ТюркПА, ТЮРКСОЙ, Организация тюркских государств, Яссави, “Дивани хикмат”, Шейхул Машайх, тюркский язык, тюркские народы.*

Har bir xalq, millat va davlatning mavjudligini, ulug‘vorligini namoyon etadigan ma’naviy piri murshidlari bo‘lgan. O‘tmish ajdodlarning ma’naviy-diniy merosi xalqlarning fozil shahar aholisi bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbek xalqi dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shgan buyuk xalqlardan biri sifatida ulkan ma’naviy-diniy boyliklarga ega. Ajdodlarimizning aql-zakovati, tafakkuri bilan yaratilgan ilmiy merosi, muqaddas bitiklar ming yillar davomida tildan tilga o‘tib kelmoqda. Bugun tarixga xolis nazar bilan qarash, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslarning faoliyatiga adolatli munosabat bildirish davri boshlandi. Davlatimiz rahbari moziyning qorong‘i sahifalarini yoritish, diniy ulamolarning noyob asarlarini, ma’naviy-diniy qarashlarini xalqimizga yetkazish, yoshlarni ilm-fanga mehr-muhabbat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash yo‘lida qilgan sa’y-harakatlari, diniy, tarixiy, falsafiy soha vakillarining izlanishlari o‘z samarasini bermoqda. Bu borada e’lon qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar, nizomlar, buyruqlar, amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida tariximiz, o‘tmishimiz bilan bog‘liq barcha ma’naviy va madaniy boyliklarga qarash tubdan o‘zgardi, ular butun jilosi, tarovati bilan qaytadan ko‘z oldimizda namoyon bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o‘rganishimiz zarur. O‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi” [1. B. 288].

2019-yil 14-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan kelishuvini ratifikatsiya qildi va shu yil oktyabr oyida bu tashkilotga rasmiy ravishda a’zo bo‘ldi. Mamlakatimiz bu tashkilot va uning tarkibidagi tuzilmalari (Turkiy tilli davlatlar Parlament assambleyasi (TurkPA), Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY), Xalqaro turkiy akademiya, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi) sammitlariga katta e’tibor qaratmoqda va faol ishtirok etmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktyabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan TTDHK-ning 7-sammitida, 2020-yil 19-aprel kuni esa “COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashda hamjihatlik va hamkorlik” mavzusidagi onlayn shaklda tashkil etilgan TTDHK davlat rahbarlari kengashining navbatdan tashqari yig‘ilishida, shuningdek, 2021-yil 31-mart kungi norasmiy sammiti va Turkiyaning Istanbul shahrida o‘tkazilgan 2021-yil noyabr oyidagi sammitida ishtirok etganligini qayd etib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

O‘zbekiston tashkilotga a’zo bo‘lganiga ko‘p vaqt bo‘lmasa-da, mamlakatimiz tomonidan ilgari surilgan bir qator konstruktiv takliflar hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mazkur tadbirlarda ishtirok etish doirasida iqtisodiy masalalar bilan bir birgalikda tashkilotga a’zo davlatlarning muqaddas qadamjolari bo‘yicha “Tabarruk ziyoratgoh” loyihasini amalga oshirish, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish kabi tashabbuslarni ilgari surdi [2].

Yuqorida ta’kidlangan tashabbuslarning amaliy natijasi mamlakatimizning ko‘hna tarixiy shaharlaridan biri hisoblangan Qo‘qon shahrida 2021-yilning 23–24-iyun kunlari kengashga a’zo davlatlar turizm vazirlarining 6-yig‘ilishi bo‘lib o‘tganligi va bu yig‘ilishning so‘ngida 2022-yilda “Turk dunyosining turizm poytaxti” etib Qo‘qon shahri e’lon qilinganligi bo‘ldi. Bundan tashqari shu yilning 15–16-sentyabr kunlari Xivada Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotiga a’zo davlatlar madaniyat vazirlarining 38-majlisi hamda “Xiva – 2020–2021-yillarda Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” loyihasi asosida madaniy tadbirlar tashkil qilindi va muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

2021-yilning 31-mart kuni o‘tkazilgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining norasmiy sammitida prezidentimiz turkiy dunyo, turkiy xalqlar uchun juda muhim va ahamiyatli yana bir taklifni o‘z nutqida berib o‘tdi. Sh.Mirziyoyev turkiy xalqlarning buyuk shoiri, mutafakkiri, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning turkiy dunyo ma’naviy-marifiy hayotiga qo‘shgan beqiyos hissasini inobatga olgan holda, fan, ta’lim, adabiyot, san’at, ijtimoiy sohalardagi muvaffaqiyatlar hamda turkiy dunyo birligini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlarni rag‘batlantirish maqsadida Turkiy kengash doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni joriy etish taklifini bildirdi va kengash a’zolari tomonidan bu tashabbus bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi.

Qozog‘istonning Turkiston shahrida o‘tkazilgan mazkur sammitda butun turkiy xalqlarning ma’naviy kamolotida katta ahamiyat kasb yetgan buyuk mutasavvifshoir Ahmad Yassaviy merosiga alohida e’tibor qaratildi. Prezidentimiz ruhiy barkamollik va diniy-axloqiy qarashlari bilan turkiy xalqlar orasida katta obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan hazrat Ahmad Yassaviyga Sohibqiron Amir Temurning ixlosi yuksak darajada bo‘lgani hamda uning xotirasiga bag‘ishlab ulug‘vor va muhtasham maqbara bunyod etganini ta’kidlab o‘tdi. Ma’lumki, Alisher Navoiy Yassaviyga nisbatan “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi” deb yuksak baho bergan va “Nasoyim ul-muhabbat” asarida quyidagi ma’lumotni berib o‘tadi: “Xoja Ahmad Yassaviyning mozori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur voqe’ bo‘lubdur va Turkiston ahlining qiblai duosidur” [3. B. 463].

Hazrat Xoja Ahmad Yassaviy juda ko‘p mutasavvifdonishmandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ma’lumki, “Yassaviya” tariqatidan keyin Markaziy Osiyoda ikki yirik tariqat paydo bo‘ladi: “Naqshbandiya” (Xo‘jagon) va “Bektoshiya” [4. B. 148]. XVI asrda yashagan yirik tasavvuf namoyandasi Mahdumi A’zam o‘zining “Risolaye ilmiya” (“Ilmiy risola”) asarida ta’kidlashicha, Ahmad Yassaviy asos solgan Yassaviya tariqatining shiori “Niyating xudoda, qo‘ling ishda bo‘lsin” iborasi edi. Keyinchalik ma’lum bo‘ladiki, bu iboraning forscha tarjimasi bo‘lgan “Dil ba yor, dast ba kor” Naqshbandiya tariqatining asosiy shioriga aylangan [5. B. 137]. Xoja Ahmad Yassaviyning boy va qimmatli ma’naviy merosi turkiy olamning buyuk vakillari – Jaloliddin Rumiy va Yunus Emro, Yusuf Xos Hojib, Nizomiy Ganjaviy, Maxtumquli Firog‘iy va Boborahim Mashrab kabi shoirlar qatorida turkiy xalqlarning umumiy ma’naviy boyligi sifatida ardoqlab kelinadi. U o‘z davrida butun musulmon olamida “Qubbat ul-islom”, ya’ni “Islom dinining quvvati” nomi bilan tanilgan Buxoroi sharifda Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy kabi mashhur ulamolardan tahsil olgani ota-bobolarimizning doimo safdosh va hamfikr bo‘lib kelganini ko‘rsatadi [6].

Tarixdan barchamizga ma’lumki, turkiy elatlar orasidan ulkan sharafga erishgan hamda yuksak ma’naviy nufuzga muyassar bo‘lgan

ulug‘ va mo‘tabar zotlar ko‘plab uchraydi. Ahmad Yassaviy kabi asrlar davomida turkiy xalqlarning ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan va bugungi kunlarga qadar tasavvuf, adabiyot, madaniyat, hatto siyosat sohalarida o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan buyuk mutafakkirlar sanoqli hisoblanadi.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov o‘z tadqiqotida Ahmad Yassaviy shaxsiga to‘xtalib, professor Yashar Qorayevning quyidagi fikrini keltiradi: “Yassaviy – Islomga kirishning oxirgi va Islomiyatning ilk shoiri – ideologi ediki, xuddi shu ma’noda buyuk Sharq Renessansining yuzaga chiqishida Dantega o‘xshab ish ko‘rmak uning qismatiga tushdi” [7]. E’tiborli jihati shundaki, Ahmad Yassaviy faqat yangi tariqat asoschisi bo‘lib qolmasdan, balki turkiy tasavvuf she’riyatining birinchi ijodkori sifatida ham tarixiy vazifani amalga oshirgan edi. Turkiy til turkiy qavmlarning eng ko‘hna va qadimiy tili hisoblanib, unda hatto buddizm va moniy e’tiqodiga doir muqaddas matnlar ham sharhlangan. Ahmad Yassaviy esa o‘z ona tili hisoblanmish turkiy tilni birinchi bo‘lib tariqat tili darajasiga olib chiqdi.

Ahmad Yassaviyning turkiy lahjada yozilgan zohidlik va pand-nasihat ruhidagi she’rlari to‘plami – “Hikmatlar” asari u yaratgan tariqat uchun ideologik va tekstologik asos bo‘lib qoldi [8. B. 343]. Taniqli yassaviyshunos olim Ibrohim Haqqulning yozishicha, u Qur’oni karimni asos qilib olib, forsiy tasavvuf tajribalaridan foydalangan holda, turkiy axloq, qadimiy turkiy dunyoqarash va ishonchlarni ham o‘ziga omixta qilgan. “Yassaviylikda ilm-ma’rifat egallash, hikmat va saxovat tuyg‘ularini kamol toptirish, nafsga qarshi kurashda sobit bo‘lish, halol mehnat bilan rizq topishga alohida ahamiyat berilgan” [9. B. 9].

O‘rta asrlarda turkiy adabiyotga katta ta’sir ko‘rsatgan “Hikmatlar” asari turkiy xalqlar she’riyatining durdonasi hisoblanib, yassaviya tariqatidagi to‘g‘rilik, halollik, poklik, mehr-shafqat va o‘z halol mehnati ortidan kun kechirish, Haqning jamoliga yetishish yo‘lida insonni ham ma’nan, ham ruhan komillikka yetaklash kabi umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etgan.

Ma’lumki, tariqat vakillarining shiori luqma halolligi hisoblanib, o‘z halol mehnati, peshona teri evaziga hayot kechirish ularning eng asosiy maqsadi bo‘lgan. Mehnatga layoqatli har bir tasavvuf ahli, so‘fiyning qandaydir bir kasb-hunar bilan mashg‘ul bo‘lishi zarur bo‘lgan. Agarda tasavvuf tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, taniqli va dongdor shayxlar ham muayyan foydali mehnat bilan shug‘ullanganligining guvohi bo‘lamiz.

Xoja Ahmad Yassaviy ham buyuk salaflari an’anasini ixlos bilan davom ettirgan. “Yassaviyning shaxsiy hayoti bugun kishilarimiz uchun katta ibrat namunasidir. U zot bir kunlik hayotini uchga taqsimlar: birinchi qismida talabalar bilan shug‘ullanib, ularga ilm-u irfondan saboq berar, ikkinchi qismida ibodatlari bilan mashg‘ul bo‘lar, uchinchi qismida esa qoshiqtaroshlik qilib, halol mehnat qilarkan” [9. B. 12]. Yassaviy o‘z hikmatlarida insonlarni e’tiqodga, mehnat qilishga, halol mehnat bilan kun ko‘rishga chorlaydi. Bunday chaqiriqlarni quyidagi hikmatida ko‘rish mumkin:

Haq yodidan zarra g‘ofil bo‘lmag‘anlar,
Yotsa, ko‘psa Haq zikrini qo‘ymag‘anlar,
Valloh-billoh, dunyo harom olmag‘anlar,
Go‘r ichinda ul qo‘l hargiz o‘lmas bo‘lur.

G‘ofil bo‘lmas Haq yodidin tunlar tamom,
Luqma halol talab qilur, yemas harom,
Darvish kerak ushbu sifat birla mudom,
Qul bo‘lubon qullug‘idin tonmas bo‘lur [10. B. 94].

922-yilning 22-mart kuni Bag‘dodda xudosizlikda ayblanib dorga osilgan, so‘ngra qo‘l-oyoqlari kesilib, tanasi kuydirilgan holda daryoga tashlangan taniqli mutasavvifMansur Xallojni (858–922) Yassaviy bir qator hikmatlarida chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga oladi, bu ilg‘or fikrli, dovyurak va jasur mutasavvif ga o‘zgacha e’tibor ko‘rsatadi:

“Bilmadilar mullalar “Anal-haq”ning ma’nosin,
Qol ahliga hol ilmin Haq ko‘rmadi munosib,
Rivoyatlar bitildi, holin ani bilmadi,
Mansurdek avliyoni qo‘ydilar dorga osib,

Shariatdur, deb olimlar buyurdilar,
Kofir Mansur o‘lmadi, deb kuydurdilar.
Axgar qilib kulin ko‘kka sovurdilar,
Tog‘u tuzlar “Anal-haq”, deb turar ermish” [11. B. 132].

Ahmad Yassaviy ijodiy faoliyatining ilk davrlaridan boshlab o‘zining hikmatlarini, fikr-mulohazalarini turkiy xalqlar orasida keng ko‘lamda yoyish maqsadida turkiy qo‘shiqlarga yaqin sodda va xalqchil she’rlar yoza boshlaydi. Uning she’riy hikmatlarida bu yorug‘ olamda insoniyat mavjud bo‘lgandan buyon tarixiy haqiqatlar, turli xil afsona va rivoyatlar, taniqli islom ulamolari va arboblari, diniy-falsafiy firqalar nazariyotchilarining hayoti, turmush tarzi, ma’naviy barkamollik yo‘lidagi amal hamda rusumlari g‘oyat nafis, tadrijiy ravishda namoyon bo‘ladi.

Yassaviy o‘z hikmatlarida kishilarni ma’rifatli bo‘lishga, islomiy va dunyoviy ahkomlarni egallashga chorlagan va to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, mo‘minlarga mehribonlik, insof, muruvvat g‘oyalarini ilgari surgan. Buni quyidagi to‘rtligida ham ko‘rish mumkin:

Banda bo‘lsang, manmanlikni zinhor tashla,
Saharlarda joning qiynab, tinmay ishla.
Yo‘ldan ozg‘on gumrohlarni yo‘lg‘a boshla,
Bir nazarda dillarini safo qildim [12. B. 211].

Hikmatlarda ijtimoiy adolatsizlikka qarshi keskin fikrlar, dilozor bo‘lmaslikka da’vatlar aytilgan, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralab, mehnatkash xalqni talayotgan zamon g‘addorlarini ro‘y-rost tanqid qilgan, adolatli, mehr-shafqatli bo‘lishga chorlagan:

Nokas, xasis, bediyonat qullar hokim,
Moumanlik haddin oshib bo‘ldi zolim.
Xalq ichinda xor bo‘ldilar darvesh, olim,
Himoyati xalqni kofir bo‘ldi, ko‘rung.

To‘g‘ri yurgan oshiqlardan Xudo rozi,
Oshiq ishi oson emas, qilma bozi.
Yolg‘onchilar “oshiq men” der, Alloh qozi,
Iymonini puchak pulga sotar ermish
[13. B. 211].

Yassaviy yana bir hikmatida turli xil diniy e’tiqoddagi millat va elatlar o‘rtasidagi bag‘rikenglik g‘oyalarini, shuningdek, har bir inson o‘zi yashayotgan jamiyatda har qanday inson bilan qo‘ni-qo‘shni bo‘lib yashashi, savdo-sotiq, oldi-berdi qilishi, ular bilan bordi-keldi qilishi kerakligi, do‘stona qo‘shnichilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishi haqida o‘z mulohazalarini berib o‘tadi:

Gunoh ermish, kofirlarg‘a bermang ozor,
Ko‘ngli qattig‘ dilozordin Xudo bezor,
Alloh haqqi, bunday qulg‘a sijjin tayyor,
Donolardin eshitib bir so‘z aydim mano
[14. B. 183].

Ahmad Yassaviyning ba’zi hikmatlaridan shunday fikrga kelish mumkinki, u ham pir-u komili, ustozi hisoblangan Yusuf Hamadoniy singari mol-dunyo to‘plashda yiroqda bo‘lgan, faqirona va oddiy hayot kechirgan, o‘zining bir qator hikmatlarida o‘tkinchi mol-dunyoga va boylik ortirishga mukkasidan ketgan, ko‘zi och, xasis kishilarni keskin tanqid ostiga oladi:

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o‘taro,
Inonmag‘il molingg‘a, bir kun qo‘ldan ketaro,
Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,
To‘rt oyoqlik cho‘bin ot bir kun sango yetaro
[5. B. 139].

Ahmad Yassaviyning hikmatlari turkiy ellarning bosqinchi mo‘g‘ullar zulmiga qarshi kurashida qudratli ma’naviy qurol bo‘lib xizmat qildi. U “Devoni hikmat”ni yozish orqali turkiy adabiyotda faqatgina hikmatnavislik an’anasini boshlab berganligi bilan cheklanmaydi. Yassaviy hikmatlarida, shuningdek, munojot, qasida kabi adabiy janrlarga mos keladigan she’riy misralar qatori “Me’rojnoma” ham joy olgan. Uning payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom madh etilgan manzumalari hozirga qadar kitobxon ko‘nglini junbishga keltirib, har qanday ijodkorga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishga qodir asarlar hisoblanadi.

Mir Alisher Navoiy bu ulug‘ turkiy xalqlarning pirini shunday so‘zlar bilan tilga oladi: “Ahmad Yassaviy – Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidir. Maqomoti oliy va mashhur, karomati matavoliy va nomaxsur erdi. Murid va as’hob g‘oyatsiz va shoh-u gado aning irodat va ixlosi ostonasida nihoyatsiz ermish” [3. B. 462].

Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar adabiyoti uchun eng katta xizmati shundaki, u o‘z irfoniy hikmatlari, to‘rtliklari orqali turkiy tasavvuf adabiyotining o‘ziga xos tamoyilini yaratdi, keyingi davr irfoniy she’riyatning yuksalishiga keng miqyosda o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Sulaymon Boqirg‘oniy, Nasimiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ubaydiy, Maxtumquli kabi ijodkorlarning badiiy-

-ijodiy dunyoqarashi shakllanishiga Yassaviy poetik an'analari ta'sir ko'rsatdi. Yassaviy orif, faqir, miskin, eran, darvesh kabi obrazlarni o'z hikmatlarida gavdalantirdi va ularni komil inson ideali atrofida birlashtirdi.

Ahmad Yassaviy barcha turkiy xalqlar uchun tabarruk va qadrli insondir. Yassaviy nomi, tariqati va "Devoni hikmat" asari barcha turkiy xalqlar orasida ma'lum va mashhurdir. Mana shuning uchun ham Ahmad Yassaviyning diniy-tasavvufiy ta'limoti va she'riyati asrlar mobaynida dunyoning ko'p mintaqalarida o'qib-o'rganilib kelinadi.

Yassaviyni bilish, anglash – bu, eng avvalo, shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatni bilish demakdir. Shuningdek, Yassaviyni bilish – bu inson aqli, qalbi va ruhi sirlarini teran anglab, komillik, kamolot sari yuksalish demakdir. Ajdodlarimizning axloqiy-ma'naviy hayotida nihoyatda muhim o'ringa ega bo'lgan Ahmad Yassaviy ijodiyoti sobiq sho'ro tuzumi davrida xalqdan ajratib qo'yilgan edi. Shunday bo'lsada, ulug' mutafakkirning muborak nomi va she'riy hikmatlari xalqimiz qalbida, ong-u shuurida yashab keldi. Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov tomonidan "Devoni hikmat" nashrga tayyorlanib, keng kitobxonlar ommasiga yetkazildi. XX asrning 20-yillarida Turkiyada yassaviyshunoslik bo'yicha katta ishlar amalga oshirilganligi sababli "Devoni hikmat"ning Kamol Eraslon tomonidan chop qilingan nashri asos qilib olingan edi.

Mashhur turk olimi M.F.Kuprulining "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" nomli kitobining yaratilishi ham muhim voqea bo'lgan. Shundan buyon qardosh turk zaminida Yassaviy ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq qilish, asarlarini nashr etish ishlari davom etib kelmoqda. Jumladan, so'nggi o'n yillikda turk tadqiqotchilari bu sohada katta yutuqlarga erishdilar. Ta'kidlash joizki, bugun yassaviyshunoslikka ma'lum bir hissa bo'lib qo'shiladigan ilmiy ishlarni amalga oshirishni ko'zlagan har bir olim ana shu tadqiqotlardan xabardor bo'lishi zarur hisoblanadi.

Yassaviyshunoslik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilishiga qaramasdan, Yassaviy ma'naviy merosining tadqiq qilinmagan jihatlari hali juda ko'p. Shu o'rinda Turkiy Davlatlar Tashkiloti darajasida bu mutasavvif ga alohida e'tibor qaratilsa, uning nomidagi xalqaro mukofot yoki xalqaro xayriya jamg'armasi ta'sis etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Vaholanki, tasavvuf ilmining shayxi, piri, benazir ulamoning turkiy tilda yozgan barcha asarlarini turkiy tilli xalqlar birdek tushunadi, birdek qabul qiladi. Yassaviyning turkiy tilda yozilgan she'riy hikmatlari tilining soddaligi, xalqchilligi, ifodaning yorqinligi va purma'noliligi bilan alohida ajralib turadi. Bu qaror turkiy xalqlar madaniy integratsiyalashuvida o'ziga xos muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda din, tarix, falsafaning ahamiyati beqiyosdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur" [16] deb ta'kidlab o'tgan edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Yassaviy ma'naviy merosi va hikmatlarida poklik, to'g'rilik, kamtarinlik, mehr-shafqat, halol mehnat bilan kun kechirish, nafsni jilovlash, imonli bo'lish kabi asl insoniy fazilatlar ulug'langan. Zolimlar, poraxo'rlar, mutaassib shayxlar, johil va nodon kimsalar esa qoralangan. Shuning uchun mustaqillik yillari yurtimizda Ahmad Yassaviy hikmatlari qayta-qayta nashr etib kelinmoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, Turkiy xalqlarning aziz shayx va avliyolaridan hisoblangan Xoja Ahmad Yassaviy ma'naviy merosining barcha turkiy xalqlar zaminidagi zamonaviy yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosdir, ularning ruhini ko'tarishga, hamkorligini kuchaytirishga muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. *Мирзиёев Ш.М.* Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Туркий кенгашнинг норасмий саммитида иштирок етди [Интернет манба]. URL: https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-turkiy-kengashning-norasmiy-sammitida-ishtirok-etdi (Мурожаат этилган сана: 31.03.2021).

3. *Навоий А*. Насойим ул-муҳаббат мин шамойимил футувват. – Тошкент: Моваройуннаҳр, 2017. – 576 б.

4. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар). – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 2001. – 408 б.

5. *Қодиров М.* Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (Ўрта асрлар). – Тошкент: ТошДШИ нашриёти, 2009. – 191 б.

6. *Саифназаров И*. Тарихни тиклаётган тафаккур туркий халқларнинг маънавий ва диний ҳамжиҳатлигини таъминловчи муҳим омиллар асоси. [Интернет манба]. URL: https://adolat24.uz/?p=25245

7. *Ҳаққул И.* Яссавий [Интернет манба]. URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yassaviy.html (Мурожаат этилган сана: 25.03.2012).

8. *Книш А*. Мусулмон тасаввуфи. – Тошкент: Фан зиёси, 2022. – 448 б.

9. *Яссавий А., Боқирғоний С.* Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 272 б.

10. *Яссавий А.* Девони ҳикмат. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – 208 б.

11. *Яссавий А., Боқирғоний С.* Ҳикматлар куллиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 464 б.

12. *Пўлатова Д., Қодиров М., Аҳмедова М., Абдуҳалимов А., Шозамонов Ш*. Фалсафа тарихи (Шарқ фалсафаси). – Тошкент: Жаҳон принт, 2013. – 532 б.

13. *Ҳомидий Ҳ*. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 392 б.

14. *Хожа Аҳмад Яссавий.* Умр елдек ўтаро. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2020. – 400 б.

15. *Яссавий А*. Ҳикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 256 б.

16. *Мирзиёев Ш*. Миллий тарихни миллий руҳ билан яратиш керак. Акс ҳолда унинг тарбиявий таъсири бўлмайди. [Интернет манба]. URL: https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-milliy-tarixni-milliy-ruh-bilan-yaratish-kerak-aks-holda-uning-tarbiyaviy-tasiri-bulmayd (Мурожаат этилган сана: 19.01.2021).

THE FACTOR PROVIDING AS YASSAVI'S HERITAGE OF THE SPIRITUAL UNITY OF THE TURKISH PEOPLE

Ismail S.Saifnazarov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 5-11.

[1] Tashkent State University of Economics, Tashkent, 100066, str. Islam Karimov, 49 (Uzbekistan). E-mail: info@tsue.uz

Keywords: *CCTSC, TurkPA, ITCO, Organization of Turkic States, Yassavi, "Devoni xikmat", Shayxul mashoyiq, Turkish language, Turkish peoples.*

This article reveals the role of the name and heritage of Ahmed Yassavi in strengthening and developing the unity of the Turkic world with the Turkic-speaking countries in science, education, literature, art, the socio-economic sphere, and also talks about the creation for these purposes of the "Council for Cooperation of Turkic-Speaking Countries" and its structures (Parliamentary Assembly of Turkic Speaking Countries – TurkPA, International Turkish Cultural Organization – TURKSOY, International Turkish Academy, Turkish Culture and Heritage Foundation), in whose work the name and spiritual heritage of Ahmed Yassavi can also serve as an important factor in ensuring the spiritual and religious unity of the Turkic peoples.

Ahmed Yassavi is one of the most famous figures of the Turkic world. As the founder of the first sect and mystical poetry, he had a strong influence on the religious, moral, mystical and spiritual life of the Turkic peoples. The Yassavi sect and the tradition of sages, which were widespread during Alloma's lifetime, continued consistently until the beginning of the 20th century, especially in Central Asia. After the ex-Shura state escalated the fight against religion, the experience of mystical life was put an end to, and the impartial study of Sufi literature was forbidden. For several decades, the Uzbek people were deprived of the happiness of knowing the great Yassavi's life, personality, literary and mystical heritage, and enjoying his historical services. Therefore,

in almost all the books on literature, history, and philosophy written after the thirties of the last century, Ahmed Yassavi's personality, outlook, creativity, and followers were severely criticized and condemned. Also, if we do not take into account examples of hikmat in some khrestomatiya and collections, neither publication nor research of Devoni hikmat was allowed for nearly seventy years.

In this sense, the opinions of the great philosopher, scientist, academician Ibrahim Muminov expressed at the beginning of the fifties are worthy of attention: "The worldview of Ahmed Yassavi's school is described in poetic form in his famous work "Devoni Hikmat". This work is written in fluent, easy-to-read Uzbek language. "Hikmat" is a valuable monument of Uzbek literature, and its author testifies that he was a person who knew the religion of Islam, the philosophy of Kalam, Sufism, the life and life of farmers, herdsmen, artisans, and in general, the social and cultural order of that time. Because Yassavi's level was broad and deep, he was able to write this great work for the first time in Uzbek."

Based on the discussed issues, the proposed issue is that Ahmed Yassavi's "Wisdom" unites all Turkic-speaking countries under a common idea, just as European countries are economically, culturally, cross-border integrated (European Union), Turkic-speaking countries are also "Organization of the Cooperation Council of Turkic-speaking Countries". under the name trade-economic, cross-border, cultural integration.

References:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2021) *Yangi O'zbekiston strategiyasi* [New Uzbekistan strategy]. Tashkent: O'zbekiston.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiy kengashning norasmiy sammitida ishtirok etdi. **[**The President of the Republic of Uzbekistan participated in the informal summit of the Turkish Council]. [Online]. URL: https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-turkiy-kengashning-noras-miy-sammitida-ishtirok-etdi. (Date of access: 31.03.2021)

3. Navoi, A. (2017) *Nasoyim ul-muhabbat min shamoyimil futuvvat* [Nasayim ul-muhabbat min shamayimil futuvvat]. Tashkent: Movarounnahr.

4. Khairullaev, M.M (ed.) (2001*) Ma'naviyat yulduzlari* |(Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) [Stars of spirituality (famous Central Asian figures, scholars, writers]. Tashkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

5. Kadyrov, *M.* (2009) *Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri* (O'rta asrlar) [Philosophical thought of Central Asia, Near and Middle East (Middle Ages)]. Tashkent: ToshDShI nashriyoti.

6. Saifnazarov, I. Tarixni tiklayotgan tafakkur Turkiy xalqlarning ma'naviy va diniy hamjihaligini ta'minlovchi muhim omillar asosi [The thinking that restores history is the basis of important factors that ensure the spiritual and religious unity of the Turkish peoples] [Online]. URL: https://adolat24.uz/?p=25245

7. Haqqul, I. *Yassaviy* [Yassavi]. [Online]. URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yassaviy.html. (Date of access: 25.03.2012)

8. Knish, A. (2022) *Musulmon tasavvufi* [Muslim mysticism]. Tashkent: Fan ziyosi.

9. Yassavi, A., Boqyrgani, S. (2013) *Hikmatlar* [Proverbs]. Tashkent: O'zbekiston.

10. Yassavi, A.(1992) *Devoni hikmat* [Wisdom of God]. Tashkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.

11. Yassavi, A., Boqyrgani, S. (2015). *Hikmatlar kulliyoti* [Collection of proverbs]. Tashkent: O'zbekiston.

12. Po'latova, D., Qodirov, M., Ahmedova, M., Abduhalimov, A., Shozamonov Sh. (2013) *Falsafa tarixi* (Sharq falsafasi) [History of philosophy (Eastern philosophy)]. Tashkent: Jahon print.

13. Hamidi, H. (2016) *Tasavvuf allomalari* [Scholars of Sufism]. Tashkent: O'zbekiston.

14. Yassavi, Xoja Ahmad. (2020) *Umr yeldek o'taro* [Life is fleeting]. Tashkent: Muharrir nashriyoti.

15. Yassavi, A. (1990) *Hikmatlar* [Proverbs]. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

16. Mirziyoyev, Sh.(2021) *Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi* ['National history should be created with a national spirit. Otherwise, it will not have an educational effect'. [Online]. URL: https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-milliy-tarixni-milliy-ruh-bilan-yara-tish-kerak-aks-holda-uning-tarbiyaviy-tasiri-bulmayd (Date of access: 19.01.2021).

Muallif haqida ma'lumot:

SAIFNAZAROV Ismail – falsafa fanlari doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori. E-mail: profis48_48@mail.ru